

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 2

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 758 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr	10
Baxtiyor Islamov	
Kichik biznesni rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati	12
Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G’oipnazarov	
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System	18
Zufarova Nozima Gulamiddinovna	
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko’rsatkichlari va ekologik muammolar	26
Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich	
Yashil budjetlashtirish va uni O’zbekistonda joriy etish istiqbollari	32
Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	
Iqtisodiyotda ta’lim va fan integratsiyasining asosiy yo’nalishlari	37
Yormatov Ilmidin Toshmatovich	
Transport vositalari va yo’llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir	41
Agzamov Shaxboz Akmalovich	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish	46
A. X. Salamov	
Biznes-reja baliqchilik xo’jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida	50
Dosmurotova Shaxista Kengashovna	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog’liqligi	57
Axmediyeva Aliya Toxtarovna	
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari	65
Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich	
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo’llari	69
Shamsiyev Nodir Muratovich	
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari	74
Shagzatov Oybek bahodirovich	
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo’nalishlari	78
Davlatov Sanjar Abdimannonovich	
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari	82
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo’nalishlari	86
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
O’zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida)	91
Yoriyeva Farangiz Murodillayevna	
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi	96
Nazarova Umida Avazovna	
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari	100
Mirzaxodjayev Alisher Botirovich	
Globalashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish	105
Mirzayev Musurmon Umidullayevich	



Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o'рни va ahamiyati.....	110
Fayziyeva Aziza Azamat qizi	
Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili.....	115
Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich	
Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish.....	121
Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi	
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari	125
Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich	
Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан.....	131
Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна	
Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	137
Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish	143
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari: Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	150
Sultonboeva Munira bahodirovna	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	156
Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	
Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта	161
С. С. Алиева, А. Назаров	
Erkin iqtisodiy zonalarining faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	169
Sheraliyeva Saida Azatovna	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari	172
Ergashev Sarvar Xudoynazarovich	
Инклюзивное образование и его особенности	177
Зайнутдинова Умида Джалоловна	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	181
Qurbonov Muxiddin Abdullayevich	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	186
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	190
Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	195
G. Adilova	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	199
Mardiyev Nurali	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari.....	205
Yaxyayeva Inobat Karimovna	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili	209
Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari	215
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	223
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar	228
Eshimov Alisher Dasmurodovich	



Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi)	236
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	242
Rabbimov Elbek Abdulloyevich	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari	247
Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	252
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	258
Kenjayev Soxib Sayfiyevich	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish	262
Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli	268
Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari	276
Sobirov Otabek Olimjonovich	
Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari	279
Kultayev Farxod Shavkatovich	
Tijorat banklari foydasi va rentabillik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish	283
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari	286
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Venchur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	290
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	295
Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtrishda tahlil qilish.....	299
Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari	304
Abdullayev Boburjon Akbaraliyevich	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni	308
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	312
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Talabalarining oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	316
O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation	321
Mukhlisa Ikramova	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri	327
Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	331
Kadirova Sharofat Amonovna	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемирйўлйўловчи"	334
Н. Э. Кахорова	



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	339
Sharipov Bobur Anvar o'g'li	
“STEKLOPLASTIK” MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish	344
Musyeva Shoirazimovna	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari	350
M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	355
Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligini KPI orqali baholash uslubiyati	359
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari	364
Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifat Umarovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari	371
Tursunova Shaxnoza Farhod qizi	
Процессы цифровизации АО “Hududgazta'minot”	375
Хусанов Кахрамон Нишонович	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	380
Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi	383
Bobayev Isroiljon Abidinovich	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash	388
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li	
O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	396
Sh. Madraimov	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida	399
Xasanova Lola Mamasharifovna	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari	402
B. B. Berkinov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari	411
G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida)	415
Karimov Bekzodjon Ilxomovich	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari	422
Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	
Финансы или корпоративные финансы	428
Уринов Бобур Насиллоевич	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features	434
Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	439
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	



Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	445
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash	450
S. B. Inoyatov	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari.....	455
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari	462
Ollokulova Feruza Mansurovna	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili	465
Usmanov Baxodir Baxtiyorovich	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati	471
Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanovna	
Tijorat banklari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari	475
M. Yuldosheva	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari	482
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili	489
Mirzayev Mirza Abdullayevich	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi	494
Saydullayeva Saodat Abdumajidovna	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi	501
Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish	505
Karamatova Noiba Husnitdinovna	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlarini	512
Mamatov Mamajan Axmadjonovich	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	519
Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari	524
Sultanov Baxram Begdullayevich	
Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	528
Самигова Гуландом Абдужаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri	536
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin	541
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri	545
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari	550
Shukurov Ilxom Safarboyevich	



Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari	557
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi	562
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari	566
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish	572
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе	579
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni	582
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi	586
Kucharov Abrorjon Sobirjonovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida	593
Nabiyev Feruz Nurmurodovich	
Fundamentals of Innovative Management and its Organizational Control	599
Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamatovich	
Moliyaviy menejment tizimini rivojlantirishda raqamli marketingdan foydalanishning afzalliklari	604
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
Оценка экономической эффективности использования фотоэлектрической тепловой установки	608
Жураев Ислон Рахматович, Юлдошев Исроил Абриевич, Жураева Зухра Исламовна	
Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro tajriba	614
Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich	
Turizm infratuzilmasi va uning tarkibiy tuzilishi	621
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Oliy ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishi sabablari	625
Abdukadirova Kamola Azimovna	
Mintaqada turizm sohasini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	629
Isomiddinov Inomjon Qurvonali o'g'li	
Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha infrastruktura holati	636
Dehqonov Burxon Rustamovich	
Soliqqa tortish maqsadida kadastr qiymatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari	642
Kamilov Abror Anvarovich	
O'zbekistonda uylarning energiya samaradorligini oshirish	647
Dodiyev Fozil O'tkurovich	
O'zbekistonda talant menejmentni tatbiq etish istiqbollari	653
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasini moliyalashtirish istiqbollari	658
Muxammadiyev Ramz Zoirjon o'g'li	
Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda resurs xarajatlarini optimallashtirish: tahlil va boshqarish	663
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich	
Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida sug'urta institutlarining tutgan o'rni	673
K. A. Sharipov, D. Jo'rayev	
Tadbirkorlik nazariyasining evolyutsion talqini	678
Aripov Oybek Abdullayevich	



Enhance Export Potential of Private Entrepreneurship and Small Venture.....	683
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi	
Mintaqa barqaror rivojlanishini cheklovchi ekologik omillar tahlili.....	690
Adilova Marg'uba Tursunaliyevna	
Improving the Efficiency of Industrial Enterprise Activities in the Age of Digital Technologies	698
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
A study of green marketing practices in the retail industry – Advantages and disadvantages.....	705
Davronova Zilola Gulomovna	
Tijorat banklarining korporativ xizmatlarini transformatsiyalash jarayonini rivojlantirish.....	709
Farmanova O'g'iloy Aliqul qizi	
Davlat moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirish istiqbollari	715
Maxmudov Azamat Normuradovich	
Xorijiy banklarning moliya injiniringi mahsulotlari va rivojlanish istiqbollari	721
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda turizm xizmatlari imkoniyatlari: muammo va yechimlar	727
Fayziyev Oybek Raximovich, Xalikov Saydilla Abdraxmanovich	
Sanoat klasterlarini shakllanishining simulyatsiya modelini yaratish	734
Xakimov Ziyodulla Axmadovich, Axmedova Rayxona Jasurbek qizi	
Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlari	741
Tolibjon Qazaqov Sharifjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy texnika va texnologiyalarning xususiyatlari.....	747
Xusanov Ulugbek Nishanovich	
Biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsuloti joriy hisobini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar	752
Yusupova Mahfuza Baxtiyor qizi	



HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

Tolibjon Qazaqov Sharifjon o'g'li

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
ilmiy-izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmi, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi mezonlari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: hududiy rivojlanish, innovatsiya, strotegiya, samaradorlik, hududiy yaxlitlik.

Abstract: This article presents ideas and opinions about the characteristics and priority directions of socio-economic development of regions, the mechanism of development and implementation of the strategy of socio-economic development of the region, the criteria of the rating system of socio-economic development of regions.

Key words: territorial development, innovation, strategy, efficiency, territorial integrity.

Аннотация: В данной статье представлены идеи и мнения об особенностях и приоритетных направлениях социально-экономического развития регионов, механизме разработки и реализации стратегии социально-экономического развития региона, критериях рейтинговой системы социально-экономического развития региона. развитие регионов.

Ключевые слова: территориальное развитие, инновации, стратегия, эффективность, территориальная целостность.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi hududlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uning iqtisodiy o'sishining muhim sharti bo'lib, aholi bandligi va ijtimoiy himoyani ta'minlash zarurligini belgilaydi. Hududlarni rivojlantirishni strategik rejalashtirishning ustuvor yo'nalishlari ularning tabiiy resurs, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, mehnat salohiyati, shuningdek, tovar va xizmatlari ishlab chiqarishga ixtisoslashuvining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududlari kadrlar salohiyati tufayli notekis rivojlanmoqda. Natijada hududiy rivojlanish va aholi turmush darajasining notekisligi sababli jamiyatda ijtimoiy tengsizlik kelib chiqadi.

Rivojlanishdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun hududlarda uzoq muddatli tendensiyalarni hisobga olgan holda aniq belgilangan, ilmiy asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy, investitsiyaiviy dasturlarni yanada kengaytirish talab etiladi.

Ijtimoiylashuv jarayonida hududlarni iqtisodiy rivojlantirishda hududiy boshqaruv tizimini eng quyi, asosiy bo'g'indan ya'ni, mahallabay ishlash darajasidan yuqoriga qarab o'sishga intilmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy rivojlanishda fuqarolar hayotiga ko'lamli ta'sir qiladigan qarorlar qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash, tanlanma, korrelyasion va regression tahlil, ekonometrik modellashtirish hamda prognozlash kabi usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy darajada boshqaruv qarorlarini qabul qilishga hozirgi kunda globallashuv, zamonaviy jahon iqtisodiyotining megatrendlari uning axborot jamiyatiga o'tishi, uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, eng yangi texnologiyalardan foydalanish, xususiy sektorni rivojlantirishni jadal amalga oshirish zarur.



Shuni alohida ta'kidlash joizki, hududiy darajadagi boshqaruv qarorlarini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishi O'zbekiston Respublikasida mintaqaviy iqtisodiyotning yangi sifati haqidagi tasavvurni shakllantirish lozim. Uning mohiyati va mazmuniga, birinchi navbatda, boshqaruvni tashkil etishning quyidagi jarayonlari va omillari ta'sir qiladi:

- davlat boshqaruvida samaradorlikka erishishda markazlashtirish hisobiga emas, davlat hokimiyati va boshqaruvini ijtimoiylashtirish hisobiga erishish;
- davlat mulkini keskin qisqartirish va xususiy iqtisodiyot sektorini, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kengaytirish;
- kambag'allik qatlami kengroq bo'lgan hududlar, maxsus iqtisodiy zonalar va ustuvor rivojlanish hududlari, texnoparklar va boshqalarni loyihalashtirish;
- kompleks dasturlarni amalga oshirish uchun hududlar o'rtasida, ham ular doirasidagi integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga dasturli ta'sir ko'rsatish;
- markaz, hududlar va mahalliy hamjamiyat o'rtasida yangi munosabatlarning shakllanishi, bunda hududiy hokimiyat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlarini sezilarli darajada oshirish;
- ekologik halokat xavfi kuchli zonalarini, xususan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hududlarning iqtisodiy rivojlanish sharoitlarini institutsional o'rganish kabilar.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarida hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solinishi hali yetarlicha shakllanmagan va ishlab chiqilmagan.

Hududiy rivojlanishni boshqarish tizimini ishlab chiqish zarurati boshqaruv obyektining murakkabligi va uning muhim xususiyatlarining dinamik o'zgarishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, hududiy darajadagi boshqaruv organlarining tuzilishi, funksiyalarning batafsil tavsifi va optimal boshqaruv usullarini tanlash, asosan, hududning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga - ishlab chiqarishning konsentratsiyasiga, uning ixtisoslashuviga, subyektlar soniga bog'liq.

Dasturlar qabul qilishda har bir hududning rivojlanish yo'nalishi va dinamikasi har xilini hisobga olish zarur. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni modernizatsiya qilish, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish, ilmfanni talab qiluvchi ilg'or texnologiyalarni joriy etish, uskunalarni texnik qayta qurollantirish va modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, aholi bandligi darajasini, uning turmush sifatini oshirish zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Hozirgi bosqichda hududiy boshqaruvni takomillashtirishning o'ziga xosligi mintaqaviy boshqaruvning asosiy bo'g'ini (bugungi kunda bu mahalliy davlat hokimiyati organlari) darajasida tashkiliy innovatsiyalar turlarini ya'ni, yangi tarkibiy bo'linmalar, yordamchi tuzilmalar, turli sohalar va ularning ta'sir qilish usullarini ko'paytirishning indikativ tendensiyasi bilan belgilanadi.

Bu har bir hududda boshqaruv tizimlarini takomillashtirish rivojlanishning o'ziga xos shartlarini hisobga olgan holda juda aniq bo'lishi kerak degan xulosani tasdiqlaydi. Shu sababli, menejment sohasida hududiy boshqaruvning qo'llaniladigan shakllari va usullarini guruhlashtirishda ularning zaruriy xilma-xilligi va samaradorligiga mos ravishda ijtimoiy yo'naltirish o'z aksini topishi kerak.

Markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida boshqaruv funksiyalarini raqamlashtirish boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy samaradorligini belgilaydi. Bu boradagi muammolar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- qabul qilingan qarorlarni o'z vaqtida ijrosini ta'minlash va ijro hokimiyati uni fundamental tushunish;
- Qarorlar ijrosini aholiga OAVda keng yoritish;
- qarorning maqsadi va harakatlanish jarayonlarini tahlil qilish;
- Qarorlar qabul qilishda ilgari joriy qilingan qarorlardagi bandlarni takrorlamaslik;
- qarorlarni tayyorlash va qabul qilish jarayonining birinchi navbatda, tipik, takroriy texnologik kamchiliklarini bartaraf etish;
- boshqaruv obyektining turli quyi tizimlariga ma'muriy ta'sirini kamaytirish;
- qarorlarni ularning ijrochilari bilan muvofiqlashtirish;
- qaror qabul qilish jarayonining uzoq davom etmasligi, ularning "kechikishi"ning oldini olish;
- innovatsion, strategik yondashuvlarning o'ziga xos salmog'ini oshirish;
- qaror qabul qilish jarayonini yetarli darajada ijtimoiy axborot bilan ta'minlash lozim.

Shunday qilib, hududiy darajadagi boshqaruv qarorlarining sifati va samaradorligini oshirish zarurligi to'g'risida xulosalar samaradorlikka asos bo'ladi.

Biroq boshqaruv samaradorligini oshirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning kompleksligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega, sifatsiz boshqaruvning ko'rsatilgan sabablarini batafsil bayon qilish, boshqaruv jarayonining har bir boshqaruv tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy ekspertizadan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanishi har qanday milliy iqtisodiy tizimning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hududlar ekanligini ko'rsatadi. Chunki hozirgi kunda aynan hududlar darajasida ishlab chiqaruvchi subyektlarni takror ishlab chiqarishga o'tish masalalari hal etilmoqda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish loyihalari amalga oshirilmoqda, aholining asosiy ijtimoiy ehtiyojlari qondirilmoqda.



Aynan hudud iqtisodiyotining rivojlanish ko'rsatkichlari butun davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi mezondir. Hududlarning rivojlanishini ta'minlashda davlatning roli tartibga solish funksiyalari bilan cheklanib qolmaydi balki, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish, sanoat va hududiy tizimlarda progressiv siljishlarni ta'minlash, mahsulot va xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlashda ham o'z aksini topadi.

Hududlarni rivojlantirish davlat boshqaruvining asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, jahon bozorlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, fuqarolar daromadlarini huquqiy jihatdan qayta taqsimlash, mulkiy munosabatlarni uyg'unlashtirish, mavjud tartibni mustahkamlash, boshqaruvni demokratlashtirish, davlat boshqaruvi organlarining tranzitini ta'minlashdan iborat.


Hududiy rivojlanish davlat boshqaruvi obyekti sifatida o'ziga xos tuzilmasi, madaniyati va rivojlanish darajasiga ega bo'lgan o'zaro bog'liq elementlarning murakkab tizimi bo'lib, u davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va uning samarali mexanizmlarini amalga oshirishga bevosita bog'liqdir.

Hududiy iqtisodiyotda bozor o'zgarishlarini faollashtirish, hududiy rivojlanishni davlat tomonidan boshqarish mexanizmlari va vositalarini o'zgartirish, mahalliy hokimiyat organlarining o'zaro hamkorligi tizimini samarali tashkil etish davlat hamda uning hududlari o'rtasidagi sheriklik tamoyiliga asoslangan optimal boshqaruv modellarini izlashni taqozo etadi.

Bundan ko'rinadiki, hududlarni yanada rivojlantirish yo'nalishlaridan biri hududlarni rivojlantirishni strategik rejalashtirishning asosiy ustuvor yo'nalishlarini innovatsiyalar asosida belgalashdir, jumladan [2]:

- hududiy iqtisodiyotni innovasion rivojlanish modeliga yo'naltirish va inson salohiyatini rivojlantirish;
- hududlarning investision jozibadorligini oshirish va ularda innovatsion faoliyatni faollashtirish;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- hududning tabiiy resurslari va iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini, raqobatbardoshligini oshirish;

Strategik ustuvorliklarni amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini jadallashtirishni taqozo qiladi (1-rasm).



1-rasm: Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmi

Taqdim etilgan mexanizm hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsad va vazifalariga erishish, uni normativ-huquqiy, ilmiy-uslubiy va tashkiliy jihatdan ta'minlash konsepsiyasini tavsiflaydi. Ushbu mexanizm strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq boshqaruvning umumiy tamoyillariga asoslanadi. Umuman olganda, strategik reja ishlab chiqilayotgan obyektning hozirgi holatini tahlil qilish, strategik




maqsadlarni shakllantirish va vazifalarni belgilash, strategiyani ishlab chiqish, uni amalga oshirish, nazorat qilish, strategiyani amalga oshirishning muvofiqligini aniqlash, belgilangan maqsad va vazifalar bilan natijalarni o'z ichiga oladi.

Ushbu algoritmdan kelib chiqqan holda, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va baholashdan boshlanishi kerak. Bunda makroiqtisodiy vaziyatning holati va tendensiyasi, tabiiy resurs, hudud iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash, mehnat salohiyati hamda ularni amalga oshirish samaradorligi baholash kerak. Ushbu tadqiqotlar natijalari asosida hududni rivojlantirish strategiyasini rejalashtirishning axborot ta'minoti shakllantirilishi, shu asosda uni keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilanishi kerak.

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik rejasi hududni rivojlantirish bo'yicha vazifalarni belgilash, belgilangan maqsadlarga erishish yo'llarini asoslash, salohiyatli imkoniyatlarni tahlil qilish, istiqbolli yo'nalishlarni belgilashni nazarda tutuvchi hujjat ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, uni amalga oshirish bizga muvaffaqiyatga erishishga, tanlangan yo'nalishlar bo'yicha harakatni tashkil etish usullarini ishlab chiqishga, resurslardan oqilona foydalanish usullarini asoslashga, shuningdek, viloyat ma'muriyati va viloyat hamjamiyatiga birgalikda harakat qilish imkonini beradi.

Uning natijasi, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi, harakat yo'nalishi, vositalar hamda usullar majmui bo'lishi kerak, ular yordamida hudud iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning ustuvor vazifalari hal etiladi. Albatta, buning uchun hududlarning sezilarli farqlanishini hisobga olgan holda, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishdan avval strategik rejalashtirish amalga oshiriladi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi holatini chuqur tahlil qilishda istiqbolga yo'naltirilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy xom ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investisiyaviy salohiyatini, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida, qabul qilingan "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaror bu jabhadagi ishlarni yangi bosqichda rivojlantirish, mavjud muammolarni hal etish imkonini berdi ^[3].



2-rasm: Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi mezonlari

2-rasmda keltirilgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi mezonlari doirasida, har bir hudud uchun manzilli yo'naltirilgan ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqish ularning har birining o'ziga xos imkoniyatlari va xususiyatlari mintaqani strategik rejalashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda hisobga olinishi kerak.



Strategik rejalashtirishning belgilangan ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsad va vazifalari shakllantiriladi. Shu bilan birga, hududning raqobatbardoshligini oshirish va uning tabiiy resurs salohiyatini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini rivojlantirishni ta'minlash, hududlararo hamkorlikni rivojlantirish, uni institutsional shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar qatoriga qo'yilishi lozim [4].

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vazifalari belgilab berilgandan so'ng ularni davlat boshqaruvi organlari bilan kelishilgan holda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadigan ishchi guruhlar tuziladi. Ularning asosiy vazifasi ushbu strategiyani amalga oshirish uchun moliyaviy xarajatlarni aniqlash va kutilgan natijalarni bashorat qilishdan iborat. Hududiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirish uchun dastlab dastur-rejalashtirish va normativ hujjatlar majmuasini ishlab chiqish, xususan, strategiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yillik dasturi, manzilli hududiy dastur, viloyat ichki hududlarini rivojlantirish strategiyasi nazarda tutiladi.

"2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 33-34-maqсадlariga muvofiq, Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4–1,6 baravarga oshirish va hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish ko'zda tutilgan bo'lib, unda:

- 14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" bo'lgan shahar va tumanlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish. Samarqand va Namangan shaharlarini istiqbolda "millionlik shaharlar"ga aylantirish bo'yicha choralarni ko'rish;
- 450 ming aholiga mo'ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzellarini qurib, foydalanishga topshirish. Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish;
- "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida hududlarning "o'sish nuqtalari"dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurishga alohida e'tibor qaratish;
- Respublika hududlarida qariyb 80 ming kilometr magistral va taqsimlovchi elektr tarmoqlari, 20 mingdan ortiq transformator punktlari hamda 200 dan ziyod podstantsiyani qurish va yangilash.
- hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu vazifalarni ijrosi sifatida tegishli davlat maqsadli dasturlari, hududiy dastur va chora-tadbirlar ishlab chiqildi, hududlarni rivojlantirish bo'yicha shartnomalar tuzildi, ularda budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida moliyalashtirish hajmlari ko'zda tutildi, bu esa o'z navbatida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni qisqartirishga, aholi turmush farovonligini oshirishga sabab bo'ldi.

Tashkiliy, institutsional va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning barcha jihatlari hal etilishi bilan ishlab chiqilgan Strategiyani amalga oshirish boshlandi. Albatta, tanlangan yo'nalishdan, belgilangan maqsad va vazifalardan chetlanishlarni, olingan natijalarning belgilangan ustuvor yo'nalishlarga nomuvofiqligini o'z vaqtida aniqlash maqsadida Strategiyaning amalga oshirilishini doimiy monitoringini olib borish, nomuvofiqliklar aniqlanganda tuzatishlar kiritish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi va strategiyani amalga oshirish vositalari mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni tashkiliy qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish vazifasini o'taydi. Bunda hududiy rivojlanish to'g'risidagi shartnomalar, muayyan sohalarda depressiyani bartaraf etish dasturlari, davlat maqsadli dasturlari, hududiy rivojlanish strategiyalari hamda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish dasturlari asosiy rol o'ynaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategik rejalashtirish sifati ko'p jihatdan ushbu jarayonning ilmiy-uslubiy ta'minlanishiga bog'liq bo'ladi. Strategik rejalashtirishning asosligini ta'minlash, ishlab chiqilgan Strategiyani amalga oshirish natijasida umumiy ijobiy samaraga erishish uchun ma'muriy-boshqaruv, moliya, ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy sohalarni, hududning tabiiy resurslarini, insoniy, ilmiy-texnik va innovasion salohiyatini maksimal darajada jalb etish va optimallashtirish, ilmiy-axborot resurslarini rivojlantirish, mintaqaviy rivojlanishni strategik rejalashtirishning jahon hamda mahalliy tajribasini o'rganish va isbotlash sa'y-harakatlarini barchasini birlashtirish zarur.

Bu borada, ilmiy-tadqiqot muassasalari oldida metodik vositalarni, modellashtirish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash kabi muhim vazifa turibdi. Bunda



avvalambor, boshqaruv kadrlarining sifatini oshirish zarur, bu esa o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning milliy hamda hududiy tizimini yo'lga qo'yish zaruratini keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi bosqichda hududiy rivojlanishning vazifalari va asosiy ustuvor yo'nalishlari ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi inqirozli hodisalarni bartaraf etish, innovation va investisiya jarayonlarini faollashtirish asosida iqtisodiyotni tiklash sur'atlarini jadallashtirishdan iborat bo'lib, bu o'z navbatida, milliy rivojlanish darajasini hamda mintaqaning xalqaro raqobatbardoshligi oshirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy turmush darajasini oshirish, inson salohiyatini rivojlantirishni ta'minlashni talab etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Осипов В.М., Пивоварчук И.Д., Парасюк И.Л., Стратегическое планирование как эффективный инструмент управления региональным развитием/[Электронный ресурс]. - Режим доступа:<<http://essuir.sumdu.edu.ua/bitstream/123456789/17098/1/13.pdf>>.
2. Prezidentimizning 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ4702-son qarori. <https://lex.uz/docs/4803531>
3. Томарева В. В. Диспропорции социально-экономического развития регионов Украины и пути их снижения [Электронный ресурс] / В.В.Томарева. - Режим доступа: http://www.nbuv.gov.ua/portal/Soc_Gum/Dtr_ep/2010_6/files/EC610_23.pdf.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.